



# МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 1/1 2025

# 2025

«АТРОФ МУҲИТНИ  
АСРАШ ВА «ЯШИЛ»  
ИҚТИСОДИЁТ  
ЙИЛИ

гуманитарные науки  
естественные науки  
технические науки





# МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2025**

**1-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

1-сан 2025

январь

Шөлкемлестіріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Сапардурды АБАЕВ	Дилшад МАНСУРОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Алишер НАРМАНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Ойниса МУСУРМОНОВА
Мавлюда АЧИЛОВА	Уролбой МИРСАНОВ
Азизжан АБДАЗИМОВ	Сафо МАТЧОН
Шухрат АБДУЛЛАЕВ	Шукурулло МАРДОНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мансурбек ОНГАРОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Раьно ОРИПОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Гулзабира БАБАШЕВА	Норим РАХМАНОВ
Гулжахан АЛЪДЖАНОВА	Муқаддас РАХМАНОВА
Умида БАҲАДИРОВА	Светлана СМІРНОВА (Москва, Россия)
Фархад БАБАШЕВ	Тажибай САПАРБАЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ	Феруза САПАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Мухаббат САЛАЕВА
Шахло БОТИРОВА	Шухрат ТАЖИБАЕВ
Комил ГУЛЯМОВ	Қахқор ТУРСУНОВ
Мама Назар ДЖУМАЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гулнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Тажикал КУДАЙБЕРГЕНОВА
Умида ИБРАГИМОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,Қазақстан)	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Азамат КАМАЛОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Джавдод ПЎЛАТОВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Пердебай НАЖИМОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



<b>G'uzarov O'.U.</b> Burhoniddin an-Nasafiy ta'limotida axloqiy qadriyatlarining zamonaviy talqini .....	200
<b>Мавлонов Дж.У.</b> Тарих дарсларини замонавий педагогик технологиялар асосида ўқитишнинг дидактик асослари .....	207
<b>Rahmonqulova Z.N.</b> The interplay of iris murdoch's novels and existential philosophy: a study of morality, freedom, and the human condition .....	215

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Niyazimbetova N., Kamalov A.B.</b> Maktablarda fizikani o'qitishda namoyish tajribalarining ahamiyati .....	221
<b>Qushmurotov U.I.</b> Oliy matematikadan tezaurusli yondashuv asosida amaliy mashg'ulotni tashkillashtirish .....	227
<b>Азимов А.Т., Рахимов А.М.</b> Фанни ўзлаштиришда чизмасиз тестлар ўрни .....	231
<b>Tillashayxova M.A.</b> San'at va madaniyat institutining ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va neyron tarmoqlarni qo'llash .....	235
<b>Бекназарова З.Ф.</b> Физика ўқитиш жараёнида муҳандислик йўналиши талабаларини касбий компетентлигини шакллантириш методикаси .....	241
<b>Мамадалиев К.Р.</b> Электрон ўқув қўлланмалар яратишнинг асосий воситалари ва уларни яратишга қўйиладиган умумий талаблар .....	248
<b>Bozorov A.A.</b> Vizual dasturlashga oid platformalar va ularning imkoniyatlari .....	257
<b>Jo'rayev O.I.</b> Amaliy mashg'ulotlarda VR texnologiyalardan foydalanishning pedagogik aspektlari .....	264
<b>Ochilova Z.Sh.</b> Majburiy fanlarni o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning hozirgi holati .....	272
<b>Omonov Q.K.</b> Me'moriy arka elementlarining geometrik asoslarini bajarish usullari .....	280
<b>Omonov Q.K.</b> Me'moriy obidalar gumbazlarning uch o'lchamli ko'rinishlarini tasvirlash usullari .....	286
<b>Хакимова М.Ў.</b> Техника олий таълим муассасарида муҳандислик графикаси фанини инновацион технологиялар асосида ташкил этишнинг самарали мотивацион механизми шакллантириш асослари .....	293

## БАСЛАЎШИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

<b>Исроилова Р.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda xorijiy tajribalar va ularni ommlashtirish .....	297
<b>Jabborova O.M.</b> Boshlang'ich ta'limga innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati .....	304
<b>Tilavova S.B.</b> STEAM yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish metodlari .....	308
<b>Kuchkinov A.Yu.</b> Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ekopedagogik steam-yondashuvli ta'limga tayyorlash .....	313
<b>Mustarova D.E.</b> STEAM ta'limi: boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligi .....	319
<b>Oripova N.H., Egamberdieva M.Sh.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	323
<b>Xalilova H.M.</b> Neonologik yondashuvning boshlang'ich ta'limdagi o'rni va uning tarbiya darslariga ta'siri .....	328
<b>Xolmatova F.B.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni .....	333
<b>Oripova N.H., Bo'riyeva T.A.</b> Kichik tajribalar asosida bolalarda tabiatga oid tadqiqiy- ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi .....	337
<b>Tosheva N.T., Xudoyqulova R.A.</b> Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning fonetik-fonematik nutq buzilishlarida logopedik usullarni qo'llash va nutqning gramatik tuzilishini o'rganish .....	342
<b>Tosheva N.T., Sayidova R.S.</b> Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari .....	352
<b>Tosheva N.T., Abdulloev J.A.</b> O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishning samarali usullari .....	358



## O'QUVCHI SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM- TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI USULLARI

**Tosheva N.T.**

*BuxDPI Pedagogik ta'lim kafedrası  
professori p.f.f.d (PhD)*

**Abdulloyev J.A.**

*BuxDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi  
1-kurs magistranti*

**Tayanch so'zlar:** o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, individual, yondashuv, faollik va interaktivlik, shaxsiy rivojlanish, differensial ta'lim, muammoli o'qitish, loyihalar asosida ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, onlayn ta'lim platformalari, multimedia va simulyatsiya texnologiyalari, gamifikatsiya, kritik fikrlash.

**Ключевые слова:** индивидуализированное обучение, индивидуальность, подход, активность и интерактивность, личностное развитие, дифференцированное обучение, проблемное обучение, проектное обучение, современные технологии, онлайн-обучение, обучающие платформы, мультимедийные и симуляционные технологии, геймификация, критическое мышление.

**Key words:** individualized learning, individual, approach, activity and interactivity, personal development, differentiated learning, problem-based learning, project-based learning, modern technologies, online learning learning platforms, multimedia and simulation technologies, gamification, critical thinking.

### **РЕЗИЮМЕ:**

Maqolada o'quvchilarga individual yondashuv, faollikni oshirish, mustaqil fikrlash va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash kabi samarali ta'lim metodlari shuningdek, o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zarurligi, o'quvchilarning psixologik holatini inobatga olish, va ta'limni o'yinlashtirish (gamifikatsiya) usullari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

### **РЕЗИЮМЕ:**

В статье рассмотрены такие эффективные методы обучения, как индивидуальный подход к учащимся, повышение активности, самостоятельное мышление и использование современных технологий, а также необходимость поддержки эмоционального и социального развития учащихся с учетом психологических особенностей. состояние учащихся, освещена информация о методах геймификации образования.

### **SUMMARY:**

In the article, effective educational methods such as an individual approach to students, increased activity, independent thinking, and the use of modern technologies, as well as the need to support



the emotional and social development of students, taking into account the psychological state of students, and information about methods of gamification of education is covered.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim tarbiyani tashkil etish – zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatda o‘zgarishlar, texnologiyalarning rivojlanishi va global muammolar o‘quvchilarga nisbatan yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitda ta‘lim tizimining asosiy vazifasi o‘quvchilarning nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy, emotsional va axloqiy jihatdan rivojlanishini ta‘minlashdan iboratdir. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni faollikka chaqirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va o‘zlashtirishning individual yondashuvlarini qo‘llash zarur.

Zamonaviy dunyoda bolalar qaysi mamlakatda bo‘lishidan qat‘i nazar, tez rivojlanayotgan jahonda qiyin hayot yo‘lidan o‘tishlari kerak. Dunyo juda tez o‘zgarayapti, yashash va mehnat sharoitlari o‘zgarimoqda, ilmiy va texnik ixtirolar natijasida yangi kasblar va texnologiyalar paydo bo‘layapti. Zamonaviy dunyoda odam doimiy ravishda o‘zgarishi, butun hayot davomida yangi narsalarni o‘rganishi kerak. “Bo‘lajak kattalar”ni ushbu keskin o‘zgarishlarga tayyorlash, dunyoda hayot uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribasini boyitishga o‘rgatishni maktabgacha yoshdan boshlashimiz kerak.

Shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to‘planadigan ta‘lim muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta‘lim tizimi qayta qurila boshladi – avtoritar tizimdan pedagogik jarayonni qurishning shaxsiga yo‘naltirilgan modeliga o‘tilmoqda. Ma‘lumki, shaxsiyatning asosiy poydevori hayotning dastlabki yetti yilida qo‘yiladi: bolaning maktabgacha yoshida shakllangan fazilatlar va fe‘l-atvorlari keyinchalik o‘zgarimaydi. Qisman o‘zgarib, tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi, xolos.

*Shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv* – bu pedagogning e‘tiborini bolaning ajralmasshaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas‘uliyat hissini rivojlantirishga bo‘lgan e‘tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta‘limning asosiy qadriyatining bunday e‘tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

*Shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim* faollik markazida tarbiyalanuvchining o‘zi, ya‘ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta‘lim jarayoni ta‘lim “bilimlarni kattadan bolaga o‘tkazish” modelidan, “bola



tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan" modelga yo'naltirilishi kerak.

*Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi:* bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat.

*Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli* – bizning ta'lim tizimimizga tanish bo'lgan bolaga ta'lim va intizomiy yondashuvni yengishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalariga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo'lishdir. Bola kattalar singari jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lganligi sababli uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani "yuqoridan" emas, balki yonma-yon va birga olishni anglatadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelining ijobiy tomonlarini ko'rish uchun biz uni an'anaviy ta'lim va intizomiy yondashuv bilan taqqoslaymiz

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillari.

*O'zini namoyon qilish tamoyili.* Har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.

*Individuallik tamoyili.* Bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta'lim tashkilotining asosiy vazifasidir. Nafaqat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish kerak.

*Subyektivlik tamoyili.* Individuallik faqat sub'ektiv kuchlarga ega bo'lgan va ulardan faoliyat, aloqa va munosabatlarni qurish uchun mohirona foydalanadigan kishilarga xosdir. Bolaga guruh hayotidagi haqiqiy sub'ektiga aylanishiga, shaxsiy tajribasini shakllantirish va boyitishga hissa qo'shish kerak.

*Tanlash tamoyili.* Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va subyektivlikni rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emas. Bola doimiy ravishda tanlashi, ta'lim jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda subyektiv vakolatlariga ega sharoitda yashashi va tarbiyalanishi pedagogik jihatdan ma'quldir. Aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda ochiq rivojlantiruvchi muhit (rivojlantirish markazlari) zarur.

*Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili.* Bolani muvaffaqiyatga undash kerak. Bu bolaning faol hayotiy pozitsiyasini rag'batlantirish maqsadida o'yin faoliyatiga kiritishdir. Bolaning o'yinida va samarali faoliyatida ijodkorlikka maksimal darajada yo'naltirish, o'z ijodiy faoliyatda tajribaga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir. Shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi. Ijodkorlik tufayli bola



o‘z qobiliyatlarini ochib beradi, o‘z shaxsiyatining “kuchli tomonlarini” bilib oladi. Faoliyatning muayyan turida muvaffaqiyatga erishish bola shaxsiyatining ijobiy tomonlarini, “Men” konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ishonch va qo‘llab-quvvatlash tamoyili. Pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va tarbiya texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga ishonch, o‘zini o‘zi anglash va o‘zini “men”ligiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o‘rnatmaslik kerak. Tashqi ta’sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o‘qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

*Farqli yondashuv tamoyili* – tarbiyalanuvchilarning shaxsiyatini takomillashtirishdasamarali pedagogik yordam vazifalari hal qiladi, tarbiyalanuvchilarning psixofizik, shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishga yordam beradigan maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratishga yordam beradi. Bolaning tabiatiga, uning sog‘lig‘iga, aqliy va jismoniy tuzilishiga, qobiliyat va moyilliklariga, idrokiga qarab rivojlanishidir.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv texnologiyalarning turlari

- ▶ tadqiqot (muammolarni izlash, kashfiyot orqali o‘rganish, tajriba); kommunikativ (munozara, nutqni rivojlantirish, fantaziya, notiqlik);
- ▶ o‘yin (o‘yin orqali o‘rganish, ertak, vaziyat, sahnalashtirish – fantaziyaga kirish);
- ▶ psixologik (o‘z taqdirini o‘zi belgilash – bolani tanlashga o‘rgatish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi himoya qilish, o‘z o‘zini tarbiyalash);
- ▶ faoliyat (bola bilimlarni tayyor holda emas, balki ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘zi o‘rganadi. Ta‘lim-tarbiyani tuzilishi faol qadamlar tizimini o‘z ichiga oladi);
- ▶ refleksiya (individuallikni saqlash, ijodiy yaratuvchanlik, shaxsiylikni har qanday faoliyatda shaxs sifatida saqlab qolish, o‘zini o‘zi aniqlash vositasi). Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishda pedagog quyidagilarni bajarishi lozim:
- ▶ bolalarning yoshi, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olish;
- ▶ ta‘lim jarayonini hamkorlikdagi o‘yin, izlanish faoliyati shaklida tashkil etish;
- ▶ bolaning birgalikdagi faoliyatiga oid har qanday so‘roviga javob va yordam berish;
- ▶ birgalikdagi tashkillashtirilgan ta‘lim faoliyati davomida har bir bolaga ism-sharif bilan murojaat qilish uchun vaqt va imkoniyat topish, bajarayotgan ishiga qiziqish bildirish, rag‘batlantirish, qiyinchiliklarni yengishga yordam berish. Barcha bolalarni bu ta‘lim faoliyatida qatnashishga majburlamaslik;



- ▶ bolani o'yinlarga jalb qilish, tashabbusni uyg'otish, u bilan uning xohishistaklarini inobatga olgan holda rivojlantirish uchun turli variantlarni muhokama qilish;
- ▶ bolalarning mustaqil o'yiniga qiziqishni, bolalarning topilmalaridan, asl harakatlaridan va bayonotlaridan xursand bo'lish.

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash, o'quvchilarning faolligini oshiradi va ta'limni samarali qiladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil va guruh bo'lib ishlashini qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, o'quvchilarning o'rganish qobiliyatlarini optimallashtiradi.

- √ *Onlayn ta'lim platformalari*: Bugungi kunda onlayn ta'lim platformalarining rivojlanishi o'quvchilarga o'z vaqtida va joyidan qat'iy nazar ta'lim olish imkoniyatini beradi. Onlayn kurslar, videolar, testlar va interaktiv mashqlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada osonlashtiradi.
- √ *Multimedia va simulyatsiya texnologiyalari*: Multimedia materiallari va simulyatorlar yordamida o'quvchilarga murakkab masalalarni tushuntirish va amaliyotlarni o'rgatish mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarning bilimlarini amaliyotga o'tkazish va tajriba olish imkonini beradi.
- √ *Gamifikatsiya*: Ta'lim jarayonini o'yinlashtirish (gamifikatsiya) o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni motivatsiya qilishga yordam beradi. O'quvchilar o'yinlar yordamida bilimlarni qiziqarli tarzda o'zlashtiradilar va ta'lim jarayoni yanada samarali bo'ladi.
- √ O'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatish, ularning qarorlar qabul qilish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil fikrlash o'quvchilarga muammolarni hal qilishda yangi va samarali yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.
- √ *Kritik fikrlashni rivojlantirish*: O'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatish, ularni mustaqil ravishda tahlil qilish, baholash va xulosa qilishga undaydi. Bu jarayon o'quvchilarning analitik qobiliyatlarini oshiradi.
- √ *Muammolarni hal qilish*: O'quvchilarni muammolarni mustaqil ravishda yechish, o'z nuqtai nazarini bildirish va qarorlar qabul qilishga o'rgatish kerak. Bu ko'nikmalar ularni kelajakda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli shaxslar bo'lishiga yordam beradi.
- √ O'quvchilarning emotsional rivojlanishini ta'minlash. O'quvchilarning emotsional holati ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ularning psixologik holatini, hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish o'quvchilarni muvaffaqiyatli ta'lim olishga yo'naltiradi.
- √ *Psixologik qo'llab-quvvatlash*: O'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash, stressni boshqarish, o'zini anglash va o'z hissiyotlarini ifoda etish ko'nikmalarini o'rgatish zarur. O'quvchilarga hissiy barqarorlikni

saqlashda yordam berish ularning ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb bo'lishini ta'minlaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan jarayonini tashkil etishda pedagogning ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchining ijodkorligi va o'quvchilar bilan ruhiy jihatdan yaqinlashuvini ta'minlaydi va ularni ma'naviy ahloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, o'zi bilan o'quvchilar orasida vujudga keladigan qarama-qarshiliklarni ham yengishda unung ijodkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qarama-qarshiliklar aksariyat hollarda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quv dasturida ifodalangan o'quv yuklamasi bilan o'quvchilardagi individual imkoniyatlari orasidagi;

- o'quv materialining mazmunida qoida va ta'riflarning ko'pligi bilan o'quvchilarda g'oyalar, dunyoqarashlar yondashuvlarni o'rgatishga intilishi orasida; -o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishdagi o'ziga xos yondashuvi bilan bu sohadagi ilmiy qarashlar orasida mavjud bo'lgan qarama qarshiliklar misolida bu faoliyat yaqqol namoyon bo'ladi.

Bunday sharoitda o'qituvchi dastlab qarama-qarshiliklarni fikran bartaraf etadi. O'zining shaxsiy, ijodiy qarashlari kutilgan samarani berishiga ishonch hosil qilgan keyin ularni pedagogik faoliyati davomida qo'llaydi.

Chunonchi:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf eta olishi;

- o'quvchilarning bilish faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olishi va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashishi;

- o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish bosqichlari izchilligini belgilashi va ularning shaxsiy takomillashish yo'llarini izlashi lozim.

An'anaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan ta'limga nisbatan o'quvchilarni uzluksiz rivojlantirish sohasida bir qator mashg'ulot hisoblanadi. Chunki unda o'quv jarayonining markazida o'quv materiali turadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda shaxsi markazi o'rin egallaydi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi o'quvchilarda shaxsini to'laqonli, uzluksiz va maqsadga muvofiq tarzda aqliy-intelektual, jismoniy, ma'naviy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan. Ta'limning shaxsga yo'naltiruvchanlik xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: mustaqillik, o'ziga xoslik, o'z-o'zini tatbiq etuvchanlik, ijodkorlikka undovchilik, shakllantiruvchilik, yo'naltiruvchanlik, fikriy ijodiylik, ta'sirchanlik, tanqidiylik, to'qnashuvchanlik, ifodalilik, dalil keltiruvchanlikni shakllantira olishida. Bu jarayonda o'quvchilarda shaxsida o'zi



va o'zgalarning hayotiga yuksak ma'naviy, madaniy nuqtayi nazaradan turib yondashish sifatleri qaror topadi.

Yuqorida aytilgan fikrlar o'qituvchiga ham aloqadordir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning ilmiy asoslarini yaratish uchun quyidagilar yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish taqazo qiliniyapti:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini ochish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga nisbatan qatiyatli munosabatni qaror toptirish;

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'p hadli ta'lim-tarbiya maydonlarini tashkil etish;

- umumiy o'rta ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va konsepsiyalar bilan ta'minlash. Yuqorida keltirilgan fikrlar bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash o'ta dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon o'quvchilarning nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy, emotsional va axloqiy rivojlanishlarini ta'minlaydi. Samarali ta'lim usullari orqali o'quvchilar o'zining eng yuqori potensialiga erishadi va jamiyatda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadi. O'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Samarali ta'lim usullari o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni nafaqat ma'lumotlarni o'zlashtirishga, balki mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashuvlarni qo'llashga ham undaydi. Ta'limda individual yondashuv, interaktivlik, va faollikni oshirish o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularning o'quv jarayonida samarali qatnashishini ta'minlaydi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni, masalan, onlayn ta'lim platformalarini, multimedia va gamifikatsiya texnologiyalarini qo'llash ta'limning samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatish, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va qarorlar qabul qilishda yondashuvni o'zgartirish o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlash uchun juda muhimdir. Shuningdek, o'quvchilarning emotsional va psixologik holatini inobatga olish, ularning hissiy barqarorligini saqlash ham ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'quvchilarni nafaqat bilim, balki hissiy va ijtimoiy ko'nikmalar



bilan ham ta'minlash ularning jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarni rivojlantirishda jamoaviy ishlarni, guruh bo'lib ishlashni rag'batlantirish, shuningdek, loyihalar asosida ta'lim berish usullari, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda ishlashini va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Bular ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni kelajakdagi ijtimoiy va professional hayotga tayyorlaydi. Ta'limda zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar o'quvchilarning bilimlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlashga imkon yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi va ularga har tomonlama bilimli, o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, o'quvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish jarayoni nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy, shaxsiy va emotsional rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishi orqali biz nafaqat bilimli, balki jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalaymiz. Bu esa kelajakda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

Indiaminov N. va b. Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim texnologiyalari. 2014

Abdullaeva, G. O'quvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: Ta'lim nashriyoti. (2021).

Toshtemirovna, Tosheva Nurzoda. "Zamonaviy darslarni tashkil etishda o'qituvchining psixologik xususiyatlari." Научно-практическая конференция. 2021.

Tosheva, N. T. Steam ta'limining qo'llanishi, samaradorligi va afzalliklari

Tosheva, N. T. Zamonaviy darslarni tashkil etishda texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlari

Tosheva, N. T. Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari

Tosheva, N. T. Organization of educational and cognitive situations in primary grades on the basis of didactic and psychological approaches

Tosheva, N. T. Peculiarities of pedagogical technologies in the system of preschool education.

Tosheva, N. T. Ta'limda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini rivojlantirishning didaktik-psixologik xususiyatlari

Tosheva, N. T. Педагогико-психологические подходы к развитию познавательной деятельности учащихся начальной школы.

Tosheva, N. T. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари.

Tosheva, N. T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari.

Gulzoda Boymurodova, Nurzoda Tosheva, Xurshida Ashurova. The role of trace elements in Uzbekistan's vegetation: A biogeochemical analysis.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық  
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ  
БИЛИМЛЕНДИРИҰ»**

**№ 1**

**Нөкис — 2025**

Басып шығыуға жууапкер:

*А. Тилегенов, С. Нуржанов*

Баспаға таярлаған:

*А. Тилегенов*

Компьютерде таярлаған:

*П. Реймбаев, З. Ниязымбетова*

***Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшесі №54***

***Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34***

***e-mail: [uzniipnkkf@umail.uz](mailto:uzniipnkkf@umail.uz),***

***[mugallim-pednauk@umail.uz](mailto:mugallim-pednauk@umail.uz)***

***[www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz)***

***[www.KRTEACH.UZ](http://www.KRTEACH.UZ)***

*Журналға келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Муғаллим хәм үзликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилиуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыуатларға автор жууапкер.*

Оригинал-макеттен басыуға рухсат етилди 08.01.2025. Форматы 70x100<sup>1</sup>/<sub>8</sub>

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нұсқасы \_\_\_\_\_ Буйыртпа №